



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-mart oyi
uchun dastlabki ma’lumot*

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi:
(62) 224-65-09*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-mart oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 191,5 mln. AQSH dollarini tashkil qildi va 2023- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 11,7 mln. AQSH dollariga yoki 6,7 % ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart 2024- yil, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **191,5** -11,7 %

(2023- y.: **203,2**)



Saldo

2024- y.: **-7,3** (2023- y.: **-61,8**)




Eksport

2024- y.: **92,1** +30,3 %

(2023- y.: **70,7**)

TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **99,4** -25,0 %

(2023- y.: **132,5**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 92,1 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 30,3 % ga ko‘paydi) va import hajmi 99,4 mln. AQSH dollariga (25,0 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida 7,3 mln. AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)

<p>Rossiya</p> <p>TSA – 52 114,2</p> <p>Eksport: 23 855,2 Import: 28 259,0</p> <p> 27,2 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 27 728,0</p> <p>Eksport: 27 463,0 Import: 265,0</p> <p> 14,5 %</p>	<p>Islandiya</p> <p>TSA – 22 510,6</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 22510,6</p> <p> 11,8 %</p>	<p>Xitoy</p> <p>TSA – 17 741,5</p> <p>Eksport: 5 557,0 Import: 12184,5</p> <p> 9,3 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 12 532,2</p> <p>Eksport: 8 032,8 Import: 4 499,5</p> <p> 6,5 %</p>
<p>Germaniya</p> <p>TSA – 11 347,2</p> <p>Eksport: 181,7 Import: 11165,6</p> <p> 5,9 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 8 459,2</p> <p>Eksport: 8 459,2 Import: 0,0</p> <p> 4,4 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 6 605,4</p> <p>Eksport: 4 668,5 Import: 1 936,9</p> <p> 3,4 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 6 150,4</p> <p>Eksport: 5 363,6 Import: 786,8</p> <p> 3,2 %</p>	<p>Braziliya</p> <p>TSA – 6 017,1</p> <p>Eksport: 0,7 Import: 6 016,4</p> <p> 3,1 %</p>

Xorazm viloyati jahonning 91 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (27,2 %), Pokistonda (14,5 %), Islandiyada (11,8 %), XXRda (9,3 %) va Turkiyada (6,5 %) qayd etilgan.













XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari)




Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	25 936,5	32 640,5	52 114,2
<i>Eksport</i>	15 892,7	18 035,4	23 855,2
<i>Import</i>	10 043,7	14 605,1	28 259,0
Pokiston	2 754,3	18 780,0	27 728,0
<i>Eksport</i>	2 682,3	18 562,9	27 463,0
<i>Import</i>	72,0	217,1	265,0
Islandiya	0,0	0,0	22 510,6
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	22 510,6
Xitoy	19 639,8	24 592,0	17 741,5
<i>Eksport</i>	3 406,4	2 873,6	5 557,0
<i>Import</i>	16 233,3	21 718,4	12 184,5
Turkiya	26 084,9	21 337,0	12 532,2
<i>Eksport</i>	6 394,5	5 597,5	8 032,8
<i>Import</i>	19 690,3	15 739,5	4 499,5
Germaniya	1 451,2	10 626,3	11 347,2
<i>Eksport</i>	578,1	34,9	181,7
<i>Import</i>	873,0	10 591,4	11 165,6
Afg'oniston	1 291,0	124,6	8 459,2
<i>Eksport</i>	1 291,0	124,6	8 459,2
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
Eron	1 405,8	4 889,2	6 605,4
<i>Eksport</i>	962,5	2 421,7	4 668,5
<i>Import</i>	443,3	2 467,6	1 936,9
Qozog'iston	13 757,7	6 361,8	6 150,4
<i>Eksport</i>	10 805,6	2 830,5	5 363,6
<i>Import</i>	2 952,1	3 531,3	786,8
Braziliya	0,2	35 398,8	6 017,1
<i>Eksport</i>	0,2	0,2	0,7
<i>Import</i>	0,0	35 398,6	6 016,3

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Belarus	774,0	6 151,1	4 480,7
	<i>Eksport</i>	381,4	777,9	1 041,8
	<i>Import</i>	392,7	5 373,3	3 438,9
	Iroq	428,5	62,0	2 982,6
	<i>Eksport</i>	428,5	62,0	2 982,6
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
	Litva	792,1	1 954,1	2 482,1
	<i>Eksport</i>	22,8	440,7	66,8
	<i>Import</i>	769,3	1 513,4	2 415,3
	Turkmaniston	2 728,2	2 559,4	2 202,1
	<i>Eksport</i>	1 277,4	859,4	501,9
	<i>Import</i>	1 450,8	1 699,9	1 700,2
	BAA	401,8	34,4	1 113,2
	<i>Eksport</i>	349,9	22,5	697,9
	<i>Import</i>	52,0	11,9	415,3
	Koreya Respublikasi	1 558,1	1 812,0	766,7
	<i>Eksport</i>	120,2	102,2	17,7
	<i>Import</i>	1 437,9	1 709,8	749,0
	Niderlandiya	4,5	120,6	712,3
	<i>Eksport</i>	0,1	0,2	0,6
	<i>Import</i>	4,4	120,4	711,7
	Hindiston	1 012,8	1 150,6	654,8
	<i>Eksport</i>	22,7	480,7	290,4
	<i>Import</i>	990,1	669,9	364,4
	Tojikiston	616,5	2 408,7	509,7
	<i>Eksport</i>	546,2	2 397,9	509,7
	<i>Import</i>	70,3	10,7	0,0
	Ozarbayjon	424,0	119,8	484,8
	<i>Eksport</i>	219,0	119,8	347,1
	<i>Import</i>	205,0	0,0	137,7




XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-mart, mln. AQSH doll.)*



Eng yuqori hajm, mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm, mln. AQSH dollari




2023- y.

2024- y.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushga Urganch shahri 17,3 % ulush yoki 33,1 mln. AQSH dollari, eng quyi ulushga esa Xiva tumani 2,6 % ulush yoki 4,9 mln. AQSH dollari bilan ega bo'ldi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-mart oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga oshdi.













Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-mart oyida 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 65,1 % ni tashkil etdi.

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-mart oyi holatiga ko'ra, 66,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 32,1 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 34,6 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



XORAZM VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)


Rossiya – 27,2		Ozərbayjon – 0,3	
Qozog'iston– 3,2		Ukraina– 0,2	
Belarus – 2,3		Qirg'iz Respublikasi – 0,2	
Turkmaniston – 1,1		Armaniston– 0,03	
Tojikiston – 0,3		Moldova – 0,01	




Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (27,2 %), Qozog'iston (3,2 %) hamda Belarus (2,3 %) davlatlari bilan qayd etildi.

XORAZM VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari)



 Viloyatning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 63,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 30,6 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 32,5 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



XORAZM VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-mart)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 110 taga yetdi va ular tomonidan 92,1 mln. AQSH dollari (*nomoneta* *oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 30,3 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-mart ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	70 662,5	92 076,8	127,9	130,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	22 617,4	49 958,6	152,1	2,2 m.	32,0	54,3
Ichimliklar va tamaki	293,0	357,6	122,1 m.	122,0	0,4	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 538,8	1 053,4	97,2	68,5	2,2	1,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 314,4	932,8	141,0	71,0	1,9	1,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	84,0	-	-	-	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	426,9	212,5	3,3 m.	49,8	0,6	0,2
Sanoat tovarlari	29 785,0	33 306,5	109,2	111,8	42,2	36,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	214,7	112,9	5,3 m.	52,6	0,3	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	12 337,5	3 717,5	2,5 m.	30,1	17,5	4,0
Xizmatlar	2 134,9	2 341,1	47,6	109,7	3,0	2,5

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,5 % ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (54,3 %), sanoat tovarlari (36,2 %) va turli xil tayyor buyumlar (4,0 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

XORAZM VILOYATNING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-mart)

 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	49958,6	2,2 m.
Sabzavotlar va mevalar	43251,0	2,2 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	6556,3	2,1 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	97,4	5,6 m.
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	37,6	2,2 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	13,1	20,1
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	3,1	94,3
Ichimliklar va tamaki	357,6	122,0
Ichimliklar	357,6	122,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1053,4	68,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	415,0	3,0 m.
To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	396,0	34,2
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	228,4	128,2
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	10,6	16,5
Metall rudalari va metall parchalari	3,4	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	932,8	71,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	932,8	71,0
Hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	84,0	-
O'simlik moylari va yog'lar, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	84,0	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	212,5	49,8
Noorganik kimyoviy moddalar	120,7	142,7
Bo'yoqlar va taninlar	69,3	126,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	10,7	-
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	9,9	37,8
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,5	3,4
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,3	0,1
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	0,2	2,9


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	33306,5	111,8
To'qimachilik iplari, matolar va shunga o'xshash mahsulotlar	31952,4	116,3
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	1218,8	59,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan mahsulotlar	64,6	24,4
Boshqa metall buyumlar	53,5	3,1 m.
Rezina buyumlar	8,9	-
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	4,3	15,8 m.
Teri, boshqa charm buyumlar, mo'ynalar	3,2	11,4 m.
Rangli metallar	1,0	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	112,9	52,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	62,1	127,4
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	25,9	3,2 m.
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	14,9	12,9
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	8,4	8,5 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	1,5	3,9
Metallni qayta ishlash uskunalar	0,0	-
Turli xil tayyor buyumlar	3717,5	30,1
Kiyim va kiyim aksessuarlari	3271,5	31,3
Oyoq kiyimlari	306,2	45,6
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	80,9	48,0
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	47,4	210,4 m.
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	11,5	5,6
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunalar	0,0	-

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-mart oyida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,3 % ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-mart oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Pokiston, Rossiya, Afg'oniston, Turkiya, XXR, Qozog'iston va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 90,6 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, % da)






XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-mart)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Pokiston	18562,9	27463,0	6,9 m.	147,9	1	1
Rossiya	18035,4	23855,2	113,5	132,3	2	2
Afg'oniston	124,6	8459,2	9,7	67,9 m.	16	3
Turkiya	5597,5	8032,8	87,5	143,5	4	4
Xitoy	2873,6	5557,0	84,4	193,4	5	5
Qozog'iston	2830,5	5363,6	26,2	189,5	6	6
Eron	2421,7	4668,5	2,5 m.	192,8	7	7
Iroq	62,0	2982,6	14,5	48,1 m.	22	8
Belarus	777,9	1041,8	2,0 m.	133,9	10	9
BAA	22,5	697,9	6,4	31,0 m.	25	10
Tojikiston	2397,9	509,7	4,4 m.	21,3	8	11
Turkmaniston	859,4	501,9	67,3	58,4	9	12
Ozarbayjon	119,8	347,1	54,7	2,9 m.	18	13
Hindiston	480,7	290,4	21,2 m.	60,4	11	14
Qirg'iz Respublikasi	13481,2	287,2	194,0	2,1	3	15
Polsha	384,4	225,4	5,7 m.	58,6	13	16
AQSh	22,7	182,3	114,4	8,0 m.	24	17
Germaniya	34,9	181,7	6,0	5,2 m.	23	18
Vyetnam	304,2	162,9	60,3	53,6	14	19
Ukraina	109,5	154,5	18,6	141,1	19	20



XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-mart, mln.AQSH doll.)*



2023- y.

2024- y.

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Shovot tumani 15,2 % bilan 14,0 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiariq tumani 3,0 % bilan 2,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI





Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-mart oyida 45,7 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,1 martaga yoki 36,7 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (52,0 %), Rossiya (16,8 %), Afg'oniston (13,4 %) hamda Qozog'iston (9,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-mart oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 43,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,2 martaga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 47,1 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi qiymatga nisbatan)

Dukkakli sabzavotlar 30504,4 ming AQSH dollari 7576,7 tonna  70,3 %	Karam 4 335,6 ming AQSH dollari 21100,0 tonna  10,0 %	Pomidor 1669,8 ming AQSH dollari 1574,4 tonna  3,9 %	Piyoz 1397,7 ming AQSH dollari 5092,1 tonna  3,2 %
Sabzi 1166,7 ming AQSH dollari 5085,4 tonna  2,7 %	Uzum 1274,2 ming AQSH dollari 1250,0 tonna  2,9 %	Bodring 352,1 ming AQSH dollari 536,9 tonna  0,8 %	Limon 218,1 ming AQSH dollari 198,3 tonna  0,5 %
Boshqa sabzavotlar 844,3 ming AQSH dollari 1537,8 tonna  1,9 %	Xurmo 269,7 ming AQSH dollari 515,6 tonna  0,6 %	Quritilgan meva-sabzavotlar 864,5 ming AQSH dollari 853,5 tonna  2,0 %	Boshqa mevalar 463,5 ming AQSH dollari 417,7 tonna  1,1 %



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-mart)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	5901,3	22531,8	52,0
 Afg'oniston	1809,3	7268,5	16,8
 Rossiya	13632,4	5828,4	13,4
 Qozog'iston	18470,0	3882,0	9,0
 Iroq	2556,6	1887,4	4,4
 BAA	2000,1	678,8	1,6
 Eron	456,0	603,4	1,4
 Ozarbayjon	83,7	130,1	0,3
 Turkmaniston	139,8	129,7	0,3
 Ukraina	120,0	118,2	0,3
 Turkiya	88,0	112,2	0,3
 boshqa davlatlar	481,1	190,1	0,4

* qiymat ifodasidan




2024- yil yanvar oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 52,0 % ni), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan 3,1 martaga ko'p.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-mart, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 2341,1 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,5 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (46,8 %), transport (17,1 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (15,9 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (20,2 %) hissasiga to'g'ri kelgan.


XORAZM VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-mart oyida import hajmi 99,4 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 75,0 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (52,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (29,2 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (6,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oyida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,1 mln. AQSH dollariga kamaydi va 99,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	132 506,8	99 420,9	2,2 m.	75,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	38 281,2	29 007,5	20,1 m.	75,8	28,9	29,2
Ichimliklar va tamaki	9,5	5,9	85,7	62,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11 015,1	6 066,2	173,9	55,1	8,3	6,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 950,3	1 266,3	5,5 m.	42,9	2,2	1,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	698,3	712,5	102,9	102,0	0,5	0,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	6 188,7	4 081,3	109,0	65,9	4,7	4,1
Sanoat tovarlari	6 159,8	4 196,7	89,0	68,1	4,6	4,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	62 399,9	51 708,7	195,2	82,9	47,1	52,0
Turli xil tayyor buyumlar	4 804,0	2 375,8	88,9	49,5	3,6	2,4



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-mart)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	29 007,5	75,8
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	25826,4	72,9
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	1421,8	173,5
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	922,8	127,7
Don va ularning mahsulotlari	386,9	64,4
Sabzavotlar va mevalar	265,5	69,4
Tirik hayvonlar	113,8	161,4
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	70,3	110,7
Ichimliklar va tamaki	5,9	62,0
Ichimliklar	5,9	62,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6 066,2	55,1
Yog'och mahsulotlari	5117,5	48,7
To'qimachilik tolalari	867,1	193,9
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	35,9	-
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	20,3	141,7 m.
Hayvonlar va o'simliklardan mahsulotlar	19,8	66,9
Metall rudalari va metall parchalari	3,8	25,6 m.
Qog'oz xamiri va makulatura	1,9	112,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 266,3	42,9
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1220,0	45,3
Gaz, tabiiy va sun'iy	40,8	-
Ko'mir, koks va briketlar	5,5	2,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	712,5	102,0
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	692,9	99,2
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	19,6	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 081,3	65,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	2371,2	124,4
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	437,3	76,2
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	357,6	4,1 m.
Organik kimyoviy moddalar	260,2	2,1 m.
Noorganik kimyoviy moddalar	220,6	3,9 m.
Bo'yoqlar va taninlar	161,0	38,7
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	146,4	40,4
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	108,8	50,2
O'g'itlar	18,2	0,7

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	4 196,7	68,1
Yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	1029,8	86,9
To'qimachilik iplari, matolar	997,0	80,2
Metall buyumlar	704,0	58,7
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	501,6	56,1
Quyma temir va po'lat	326,3	40,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	318,5	71,5
Rezina buyumlar	311,8	87,4
Rangli metallar	7,6	22,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	51 708,7	82,9
Boshqa transport vositalari	22516,5	883,0 m.
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	18560,4	59,4
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	3909,6	45,2
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	3253,2	49,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	2553,5	22,9
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	459,0	11,4
Metallni qayta ishlash mashinalari	345,8	98,8
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalari	84,3	23,3
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunalari	26,4	39,8
Turli xil tayyor buyumlar	2 375,8	49,5
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1348,7	55,5
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	840,6	73,7
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	105,4	9,0
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	26,1	5,6 m.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	22,8	4,0 m.
Poyabzal	22,8	58,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	9,4	70,0

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-mart oyi natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 35,8 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 34,9 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, ming. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-mart oyida viloyatimiz 46 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, Islandiya, XXR, Germaniya, Braziliya, Turkiya va Belarus) jami importning 88,6 % ini tashkil etdi.

VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-mart, % da)






XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	14605,1	28259,0	145,4	193,5	4	1
Islandiya		22510,6	-	-	-	2
Xitoy	21718,4	12184,5	133,8	56,1	2	3
Germaniya	10591,4	11165,6	12,1 m.	105,4	5	4
Braziliya	35398,6	6016,3	-	17,0	1	5
Turkiya	15739,5	4499,5	79,9	28,6	3	6
Belarus	5373,3	3438,9	13,7 m.	64,0	6	7
Litva	1513,4	2415,3	196,7	159,6	16	8
Eron	2467,6	1936,9	5,6 m.	78,5	10	9
Turkmaniston	1699,9	1700,2	117,2	100,0	15	10
Qozog'iston	3531,3	786,8	119,6	22,3	8	11
Koreya Respublikasi	1709,8	749,0	118,9	43,8	14	12
Niderlandiya	120,4	711,7	27,3 m.	5,9 m.	27	13
BAA	11,9	415,3	22,9	34,8 m.	35	14
Hindiston	669,9	364,4	67,7	54,4	19	15
Pokiston	217,1	265,0	3,0 m.	122,1	24	16
Ukraina	309,7	259,5	27,5	83,8	22	17
Bangladesh	548,2	221,1	163,3	40,3	20	18
Italiya	790,0	176,8	12,6 m.	22,4	18	19
Bolgariya	498,0	156,9	-	31,5	21	20


XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-mart, mln. AQSH doll.)




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Urganch shahri 25,5 % bilan 25,3 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangibozor tumani 0,3 % bilan 0,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

 2024- yil yanvar-mart oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari (tovarlari) hajmi 4,2 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31,2 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi

4,2 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-mart)

1383,7 ming AQSH doll.
ulushi – 33,0 %

 Rossiya

925,6 ming AQSH doll.
ulushi – 22,1 %

 XXR

453,6 ming AQSH doll.
ulushi – 10,8 %


 Turkiya

287,7 ming AQSH doll.
ulushi – 6,9 %

 Turkmaniston

281,7 ming AQSH doll.
ulushi – 6,7 %

 Germaniya

 Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (1,0 mln. AQSH dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (1,0 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (0,7 mln. AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari (0,5 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.